

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

**БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ**  
(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

*мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция*

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2024 йил 10 май**

**Бухоро – 2024**

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ”** (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА) мавзусидаги Республикао миқёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

**Масъул муҳаррир:**

**БухДУ профессори, тарих фанлари доктори**

**Ҳ.Ҳ.Тўраев**

**Таҳрир хайъати ва аъзолари:**

О.Х.Хамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор

Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор

А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент

Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент

С.И.Иноятов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.

М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

Ф.Ҳ.Бобоҷонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)

Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)

О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,

Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

**Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:**

**Темиров Ф.У. –** Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири

**Умаров Б.Б. –** Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

**Носиров Ш.Ў –** Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги  
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,  
маълумотлар, чиқарилган хулюсалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг  
ўзлари масъул ва жавобгардир*

## **Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)**

оргали юртасидан. О‘збек миллатига мансуб кишилар юшайдиган оғизлар. Топоним кишиларнинг этник билимни асосида вујудга келган.

Yobuxona etnotoponimi yobu qavmi nomidan oлинган joy nomi. Yobu (jobu) qabilalari Zarafshonning о‘рта ва quyи оғими, Qashqadaryo vohasiga tarqalgan. Yobg‘u со‘зининг qisqarma shakli deb hisoblangan taqdirda, turkiy qabila hukmdorlarining unvonidan hosil bo‘lgan toponomiga aylanadi. Yuk tortuvchi ot fors-tojik tilida “yobu” deyilgan. Atamaning lug‘aviy ma‘nosidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, Yobuxona yuk tortuvchi otlarga ega aholi yashagan qishloqqa qarata ishlatalgan toponim bo‘lib chiqadi. О‘рта асрларда quruq yer, bo‘sh maydon “yobis” со‘зи билан ifoda etilgan. Ushbu со‘зининг atamaga aylangan bo‘lishi mumkinligini ham inobatga olish kerak, deb о‘ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda, tumanda joy nomlari talaygina biz sizlar tumandagi etnotoponimlar haqida ма‘лумот berib o‘tishga harakat qildik. Har bir inson о‘зи tug‘ilib o‘sgan joyining nomini bilishi zarur bo‘lganidek, со‘зининг qaysi urug‘дан ekanligini, qaysi etnik tarkib borib taqalishini ham bilishi lozim.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. – Toshkent: Navro‘z, 2020. – 114 b.
2. Дониёров X. Ўзбек халқининг шаражаси ва шевалари. – Тошкент: Наврӯз, 2017. 134 б.
3. To‘rayev H. Buxoro toponimikasi. – Buxoro: Durdona, 2021. – 260 b.
4. A’ZAM B. ABOUT THE TOPONYM “BUKHARA”. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(4), (2021). 36-41.
5. Болтаев А.Х. Бухоро шаҳри 11 дарвозасининг тарихи ва тақдири (ўлқашунос ТФ Гелах тадқиқотларида). Тюркоязычные страны. Республиканский научно-методический и познавательный журнал. Алмати, 2, (2018). 6-8.
6. Болтаев А. СН Юренев илмий меросида ўлкамиз тарихи масалалари. центр научных публикаций (бухду.uz), (2023). 28(28).
7. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2006. 320 b.
8. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. 240 б.
9. Ражабов О.И., Болтаев А.Х. XX аср 40-йиллари Бухорода ташкил қилинган илмий экспедиция. Ўтмишга назар| Взгляд в прошлое| Look to the past, 6, (2021) 30-36.
10. Болтаев А.Х., Самандарова Н.З. Роль краеведческих кружков в воспитании молодёжи. Вестник магистратуры, (5-3 (116)), (2021). 63-64.
11. Baltayev A. History of Ancient Monuments in Registan Bukhara. (2023).

## **BUXORONING SOMONIYLAR MARKAZIGA AYLANISHI MASALASI**

Umarov Baxtishod  
Buxoro davlat universiteti  
tayanch doktoranti  
[b.b.umarov2019@buxdu.uz](mailto:b.b.umarov2019@buxdu.uz)

Somoniyalar davlati IX asrning ikkinchi yarmida tashkil topgan bo‘lib, давлат сифатида X asrning oxiriga qadar saqlanib turdi. Somoniylar sulolasining kelib chiqishi Somonxudotning nomi bilan bog‘liq. Manbalarga qaraganda Somonxudot dastlab yirik yer egasi hisoblangan va Somon qishlog‘ida oqsoqollik qilgan. Dastlab somonxudot musulmonlardan bo‘limgan va keyinchalik islom dinini qabul qilgan. Aynan Somoniylar sulolasi hukmroniligi davrida Buxoro shahri har tomonloma о‘sdi va О‘рта Осиёning markaziy shahri sifatida nufuzi ortdi.

Somonxudot Abbosiy xalifalari hokimiyatni qo‘lga olgan vaqtlardanoq ularning xizmatiga kirgan edi. Asad va Asadning о‘г‘illari ham xalifa Ma’mun saroyida xizmat qilishgan. 806-yilda Movarounnahrda ko‘tarilgan Rofe ibn Lays qo‘zg‘olonini bostirishga bergan yordami uchun xalifa Ma’munning farmoni bilan Asadning о‘г‘illari 819-yilda Movarounnahr va Xurosonning turli viloyatlariga noib etib tayinlandi. Jumladan, Nuh Samarqandni, Ahmad

## **Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция**

Farg'onani, Yahyo Shosh va Ustrushonani, Ilyos Hirotni boshqara boshlaydilar. Dastavval, Asadning katta o'g'li Nuh ukalari mulklarini birlashtirib Xurosandan alohida ma'muriy birlik sifatida boshqariladigan hududga aylatirishga intildi. Keyinchalik esa bu siyosatni Ahmad ibn Asad davom ettiradi. Manbalarga qaraganda Ahmad ibn Asadning yettita o'g'li bo'lgan: Nasr, Yaqin, Yahyo, Asad, Ismoil, Is'hoq va Xomid. 865-yili Ahmad ibn Asad vafotidan keyin hokimiyat tepasiga Nasr ibn Ahmad keladi. U Samarqand shahrini Movarounnahrning markaziga aylantirib, mintaqani shu yerdan turib idora eta boshlagan.

Buxoro esa bu paytda Tohiriyalar hujumlaridan aziyat chekardi. Ismoil Somoniyni Buxoroga yuborilishi bilan vaziyat ancha o'nglandi va shahar rivoj topa boshladi. Ammo Buxoroni dushmanlardan himoya qilish uchun olib borilayotgan urushlar natijasida Ismoil Samarqandga soliqlarni o'z vaqtida to'lay olmagan. Bu esa aka-uka o'rtasida ziddiyat keltirib chiqardi. 888-yili ular o'rtasida jang bo'lib o'tdi va jangda Ismoilning qo'li baland keldi. Ismoil Nasrni nomigagina hokimiyat tepasida qoldirib, o'zi mustaqil siyosat yurita boshlaydi. 892-yil, ya'ni Nasr vafot etadi va Ismoil butun Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi. IX asr oxiridan Buxoroni siyosiy markazga aylanishi ham aynan Ismoil Somoni nomi bilan bog'liq. Uning davridan shahar mudofaa devorlari mustahkamlandi, hatto keyinchalik uni ta'mirlash uchun yillik hasharlar ham bekor qilinadi.

Ismoil Somoniyning nomi qobiliyatli, zukko, serg'ayrat davlat arbobi sifatida tarixda goldi. U Movarounnahrni birlashtirgach, markazlashgan va har jihatdan qudratli davlat tuzishga intiladi. Buxorodan turib mamlakatni idora etish har tomonlama qulay edi.

893-yil Ismoil Somoni shimoldagi Taroz shahrini zabt etib, dashtliklarga zarba berilib, ularni islom diniga kiritishi juda muhim tarixiy voqealardan biri bo'ldi. Bu bilan dashtliklarning Movarounnahr viloyatlariga uyushtirib turgan uzluksiz yurishlari barham topdi va yuqorida ta'kidlaganimiz Buxoro aholisi vohani o'rab turgan 300 kilometrli "Kampirak" devorini muntazam ravishda hashar yo'li bilan ta'mirlash ishlariga jalb qilishga ehtiyoj qolmadni, chunki Ismoil Somoni vohani mudofaa qilishni Narshaxiy ta'biri bilan aytganda "Toki men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo'laman", degan ibora bilan o'z zimmasiga oladi.

VIII asr oxiri IX asr boshlarida yashagan buyuk imomlaridan Abu Havs Kabir Buxoroiy xizmatlari evaziga Buxoro islom olamida «Qubbat ul-islom» nomini olgan bo'lsa, uning islom olamida madaniyat markaziga aylanishi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etishi Ismoil Somoni nomi bilan bog'liq desak xato bo'lmasa kerak.

Somoniylar hukmronligi davrida Buxoro Sharqda Islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharda ko'pgina jome masjidlari, xonaqoh va namozgohlar bino qilindi. Buxoro ta'limi tizimi tarixini o'rgangan A.Jumanazarov shahardagi eng qadimiy madrasalar xususida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Muxammad Sharif Mahdum bayon qilgan Buxoro ilm ahli o'rtasidagi bahsni hisobga olib Kalabod va G'aribiya madrasalarini eng ko'hna ilm dargohlari qatorida sanab o'tsa bo'ladi". Ushbu madrasalar davr jihatdan oldinroq bo'lsa-da, tarixiy manbalarda, Buxorodagi birinchi madrasa sifatida IX asrda barpo etilgan "Farjak madrasa"sinı ko'rishimiz mumkin. Farjak madrasasi nafaqat Buxoro, balki butun bosqli mintaqamizda bunyod etilgan dastlabki madrasalardan biri sifatida tarixga kirgan. U to'g'risidagi ma'lumotlar Muhammad Narshaxiyga tegishli bo'lib, bu madrasa taxminan IX asrda Buxoro shahrining "Samarqand darvoza" deb ataladigan qadimiy manzili hududida, yo'l yoqasida qurilgan. Milodiy 937-yilda yonib vayron bo'lgan. Madrasa keyinchalik qayta ta'mirlangan. XII asr muallifi Abdukarim as-Sam'oniy madrasani Farjak darvozasi oldida deb yozgan. Farjak va Samarqand bitta darvozaning ikkita nomi bo'lgan.

Shunday qilib, Somoniylar davrida qurilgan bu madrasa bir necha asrlar davomida xalqqa xizmat qildi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Somoniylar davrida Buxoroning erishgan yutug'i faqatgina Farjak madrasasi emas. Somoniylar masjid, madrasa va xonaqohlar qurish uchun maxsus joylar va ularning sarf-u xarajatlari uchun katta-katta mulklar ajratib bergenlar. Nasr II (914–943) davrida Buxoroning Registon maydonida amir qasri qarshisida devonlar uchun saroy ham qurilgan.

## **Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)**

Bundan tashqari, bugungi kungacha ham tashqi ko‘rinishi, mustahkamligi va geometrik shakli jihatidan hammani hayron qoldirayotgan Somoniylar davridan saqlanib qolgan yagona inshoot Ismoil Somoniy maqbarasi ham e’tiborga molik.

Ismoil Somoniy maqbarasi o‘rta asrlarning rivojlangan davrida (IX-X asr), taxminan 892-907-yillar oralig‘ida, hozirgi Buxoroning eski shahar qismida qurilgan. Inshoot dahma vazifasini bajarganligi sababli, uning intereri uch pog‘onali (to‘rtlik – to‘rt devor, sakkizlik – devordan tomga o‘tish qismi va gumbaz – tom ko‘rinishdagi) bir xonali kvadrat shaklni tashkil qilgan. Uning qurilishida pishgan g‘isht, tosh va yog‘ochdan foydalanilgan. Maqbaraning dizayniga to‘xtaladigan bo‘lsak, jimmima g‘ishtin bezaklari chiviqli to‘siq yoki qamish, bo‘yra to‘qimasini eslatadi. Bu inshootda bir necha tektonik yechimlar bir butunlikda, yaxlitlikda ishlab chiqilganligini inkor etib bo‘lmaydi. Turar-joy va madaniy arxitektura asoslaridan ishonch bilan foydalanganlik ushbu inshoot misolida Buxoro me’morchilik matabining o’sha davrda yuksak darajada rivojlanganligini ko‘rsatib turibdi.

Ismoil Somoniy tomonidan aynan Buxoroning markazga aylantirilishining yana bir sababi sifatida Xurosonda tinchlikni saqlash hamda shimol va shimol-sharqdan bo‘lishi mumkin bo‘lgan turk qabilalariga hujumlariga qarshi turish uchun kerak bo‘ladigan ulkan qo‘sinni saqlash uchun qulaylik va har ikkalasiga nisbatan oraliq masofada joylashganligi ham muhim rol o‘ynagan bo‘lishi mumkin. Ismoil Somoniy hukmronligi davrida Buxoro Movarounnahrning eng gavjum shahriga aylanib, shaharning shahriston va rabot qismlari 3 ta mudofaa devori bilan o‘rab olinganligi ham shaharning mudofaa salohiyati oshganligining dalili bo‘la oladi.

Somoniylarning keyingi hukmdorlari davrida ham Buxoro shahar sifatida ravnaq topib, vohaning eng go‘zal shahriga aylandi. Karvon yo‘llarining Buxorodan o‘tishi iqtisodiy hayotni, hunarmandchilikni taraqqiy etishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Somoniylar hokimiyat tepasiga kelishi bilan mintaqqa ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o‘zgarishlar ro‘y berib, bu holat siyosiy hayotga ham ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, VII asrdan Movarounnahrning markazi shahri sifatida Samarqanddan boshqaruv amalga oshirilgan bo‘lsa, Ismoil Somoniy hukmronlik tepasiga kelishi bilan o‘zi uchun alohida ahamiyat kasb etuvchi Buxoroni Movarounnahr va Xuroson markaziga aylantirdi. Nasr ibn Ahmad davrida boshqaruv sohasi tizimlashtirilganligi va amaldorlar uchun alohida mahkama qurilishi kabi holat ilk marotaba tariximizda kuzatilganligi ham ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, Ismoil Somoniy davridan boshlab Buxoro shahri ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksaldi. Diniy va dunyoviy ilmlarning markazi sifatida mintaqqa olimlarini o‘zida jamladi va arab tarixchilari asarlarida e’tirof etildi. Juda ko‘plab ilm dargohlari bunyod etildi. Shuningdek, me’morchilikda ham o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan inshootlar qurildi va poytaxt sifatida uzoq yillar o‘z ahamiyatini yoqotmadidi. Bugungi kunda ham bu obidalarning nufuzi oshib xalqaro turizmning rivojlanishiga ham turtki bo‘lmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро Тарихи. – Т.: Шарқ баёзи, 1993.
2. Мухамедов Х. «Стена Канпирак». Из истории древних народных оборонительных сооружений в Узбекистане // Общественные науки в Узбекистане. -1961. № 1. –С.43-44.
3. Истахрий. Китоб ал-масолик вал-мамолик. Араб тилидан Худойберганов таржимаси. Т.: “Фан”,2019.
4. Мухаммаджонов А.Р. Бухоро шаҳри-2500 ёшда. –Т.: “Фан” нашриёти, 1998.
5. Абу Бакр Мухаммад ибн Джаъфар ан-Наршаки. Таърих-и Бухара. История Бухары. Перевод, комментарии и примечания Ш. С. Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е. Г. Некрасовой. — Ташкент: SMIA-SIA, 2011. 600 с.
6. Булатов М. Мавзолей Саманидов – жемчужина архитектуры Средней Азии. – Ташкент: Изд-во литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1976. – С.128.
7. Umarov, B. (2023). Arab manbalarida Buxoro shahri tavisi (“Kitob al-masolik val mamalik” misolida). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 38(38).

## **Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция**

8. Umarov, B. B. (2022). Science, education and culture during the rule of the Samanids. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.
9. Umarov, B. (2023). Abu Bakr Narshaxiy asarida Buxoro shahri tavsifi. *Scientific journal of the Fergana State University*, (2), 166-166.

### **SOMONIYLAR DAVRIDA KUTUBXONA VA KITOBDORLIK TIZIMI**

**Juraqulov Muhammadamin Shoahamovich**

**Buxoro davlat Universiteti**

**Matnshunoslik va adabiy manbashunoslilik mutaxassisligi magistri**

Somoniyalar hukmronligi davrida IX asrning oxirlarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda muhim o'zgarishlar yuz bergani va bir necha yillar davomida tinch siyosat va sharoitlar hukmron bo'lib turgani Movarounnahrning asosiy ilmiy markazlaridan hisoblangan Buxoro shahrida ilmiy jarayonlarning jonlanishiga zamin yaratdi. Bu davrda xalq uchun asosiy va kerakliy maskanlar qurilgan. O'rta Osiyodagi bиринчи madrasa Buxoro shahrida somonilar hukmronligida Farjak madrasasi ilm maskani sifatida qurilganligi shu davrning taraqqiyoti va tamaddunini ko'rsatadi. Kutubxonalar eng muhim madaniy va ilmiy muassasalardan biri hisoblangan. Turli tarixiy davrlarda kutubxona ta'lim va ba'zan diniy muassasa sifatida insoniyat va jamiyat uchun xizmat qilib, madaniyatning o'sishi va rivojlanishiga, bilimlarning gullab-yashnashiga sabab bo'lib kelgan. Kutubxona insoniyat va jamiyatning ajralmas qismidir. Eronlik faylasuf Nikkor aytganidek: "Kutubxona tamaddun va taraqqiyot yaratuvchisidir, ehtimol bunday bo'lmasligi ham mumkin, lekin kutubxonasiz sivilizatsiya va taraqqiyot bo'lmaydi". Agar biz Somonilar davlatining tamadduni va taraqqiyotini ko'rsak u davrda yashab ejod qilgan olimu ulamolarning asarlariga qarashimiz kerak. Buyuk faylasuf, tib ilmining sultonı Ibn Sino, Muhammad Muso al Xorazmiy, Zakariyoi Roziy, Ahmad bin Abdulla Hasab Marvaziy, Faz ibni Hotam Nirizi, Abu Nasr Muhammad Forobiy, Rudakiy, Shahidi Balxiy, Daqiqiy, Tusiy, Firdavsiy, Nosiri Xisrav, Abu Rihon Biruniy kabi olimu ulamolar Somonilar davrida yashab ejod qilgan va insoniyat uchun qimmatliy meros qoldirilgan, haligacha Parij, Oksford, Kembrij va boshqa nufuzliy universitetlarda bularning asarlari darslik sifatida ishlatiladi. Bu davrdagi olimu ulamolar turli fanlar, shu jumladan hisob (matemateka-Algebra), trigonometriya (متلات), astronomiya (نجوم), mexanika, fizika, kimyo, tibbiyot, tarix va geografiya bo'lib, har biri turli yo'llar va ishlar bilan ilm-fan va tadqiqot maydoniga kirdilar va insoniyat uchun bebafo miros qoldirganlar.

Kutubxona bilim-madaniyat va jamiyat uchun farhang shakillanishining joy hisoblanadi, bu maqolada Somoniyalar davri kutubxonalarini bilan shug'ullanishga harakat qilingan. Bino va jihozlarning holati, to'plamni kengaytirish yo'llari, kitobxonanig qismlari va kitobxonada bo'lgan lavozim va unvonlar maqolada aks ettirilgan.

#### **Kutubxona binolari va jihozlari**

Xuroson, Ray, Movarounnahr IX asrning boshlanishi va X asarning oxirlarigacha eng buyuk ilmiy markazlar va kutubxonalarga ega edilar. Somonilar davridagi keng Xurosonning har bir burchagida yuzlab davlat va shaxsiy kutubxonalar bo'lib, xalq va olimlar uchun xizmat qilib kelgan. Bu kutubxonalar g'arb kutubxonalaridan farqli joyi shundaki kitobning zanjir qilishi yuq edi va mijozga kitobni amonatga ham berar edilar, shu davrda g'arbda juda kamdan kam sulton kutubxonalarini vujudga kelgan va shaxsiy kutubxonalari hali vujudga kelmagandi. Kutubxona binolari kichgina hujralarga bo'linib, kitoblar turli fanlarga ko'ra taqsimlangan yani har bir fan uchun alohida hujra yoki sandiqlar mavjud edi, kitoblarning ro'yxati "Fihrist" (mundarija yoki ruyxat) ga biriktirilganedi. Kerakli kitoblar "Fihrist" orqali topilib amonatga birardilar. Dastlab kutubxonalar mustaqil emasdi, boshqa markaz va muassasalarning bir qismi hisoblanardi, ko'plab masjidlar, maktablar, ilmiy markazlarning tarkibida bo'lgan. Kutubxonalarning ko'payishi bilan binolar ham ko'payib kutubxonaning idora qilish tizimi o'zgardi va ta'sischilar kutubxonalarning dizayni va arxitekturasiga alohida e'tibor berishdi.

#### **Kutubxonalar to'plami**

**О.Х.Хамидов. Қадимий ва ҳамиша навқирон Бухоро илм-фан ва маданият ўчоги.....3**

Сулаймон Иноятов. БУХОРО ФИДОЙИ ЖАДИДЛАРИ ҲАРАКАТИ: ТАРИХ ВА ТАКДИР .....	5
Фаррух Темиров, Раъно Раҳимова. БУХОРО ВИЛОЯТИ, ЖОНДОР ТУМАНИДА ЖОЙЛАШГАН “УШОТ” ВА “СОМОНЧУҚ” ҚИШЛОҚЛАРИ ТАРИХИ ҲАҚИДА .....	15
A.H. Boltayev, O.I. Rajabov. PROFESSOR Н.Н.ТО‘RAYEV – BUXORO TARIXI TADQIQOTCHISI .....	17
Фаррух Темиров. 2023 йилнинг 20 сентябрда Бухоро давлат музей қўриқхонаси ва Бухоро давлат университетида “Бухоро тарихи масалалари: тарихий – маданий меросимизни ўрганимиз” мавзусида Республика миқёсидаги илмий семинар ва унинг натижалари ҳақида .....	19

**1-ШЎЬБА. БУХОРНИНГ ҚАДИМГИ, ИЛК ВА ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ (АРХЕОЛОГИЯ, ЭТНОГРАФИЯ, ШАҲАРСОЗЛИК, ИЛМ-ФАН, САНЪАТ ВА МАДАНИЯТ).....22**

Отахўжаев Азимхўжа Музаффарович. БУХОРНИНГ ҚАНҒ ДАВЛАТ УЮШМАСИДАГИ ЎРНИ .....	22
Комилжон Раҳимов. ЎРТА АСРЛАРДА БУХОРОДА КУТУБХОНАЛАР ВА КИТОБ ДЎКОНЛАРИ ВА УЛАРДАГИ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАРИХИ .....	25
Shodiyeva Shahlo Soliyevna, Umedov Xurshidbek Jamshid o‘g‘li. SO‘G‘D KONFEDERATAIYASIDA DAVLAT BOSHQARUVI .....	29
Очилов Алишер Тўлис ўғли. ПОЙКЕНТ МУЗЕЙИ - АНТИК ВА ИЛК ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТАРИХИДАН СЎЗЛОВЧИ МУЗЕЙ .....	33
Даминов Набижон Абдуолимович. ДОБУСИЯ ҚАЛЬАСИ ТАРИХИ .....	36
Bafoyeva Sarvinoz Umidjon qizi, Ahmadov Ahmadjon Asror o‘g‘li. BUXORO VOHASINING ILK SHAHARLARI:POYKENT VA VARAXSHA .....	40
Narzulloyev Farrux, Ahmadov Ahmadjon Asror o‘g‘li. BUXORONING ANTIK VA ILK O‘RTA ASRLAR TARIXI (POYKENT MISOLIDA) .....	42
Шокирова Ферангиз Фурқат қизи, Rajabov Oybek Iskandarovich. ILK O‘RTA ASRLARDA DAVLATCHILIK VA BOSHQARUV .....	45
Islamova Qunduz. BUXORONING QADIMGI, ILK VA O‘RTA ASRLAR DAVRI TARIXI MASALALARI .....	47
Hikmatova Salomat Hamza qizi, Ahmadov Ahmadjon Asror o‘g‘li. BUXORONING ZAMONBOBO YODGORLIGI MODDIY MADANIYATI .....	49
A’зам Boltayev, Hamroyev Bekzod. BUXORO TUMANIDAGI ETNOTOPONIMLAR TARIXI .....	51
Umarov Baxtishod. BUXORONING SOMONIYLAR MARKAZIGA AYLANISHI MASALASI .....	53
Juraqulov Muhammadamin Shoahtramovich. SOMONIYLAR DAVRIDA KUTUBXONA VA KITOBDORLIK TIZIMI .....	56
Samaneh Khalili Far, Abbas Iqbal Mehran. INVESTIGATING THE ROLE OF SAMANI RULERS IN THE ART OF PAINTING IN THE SCHOOL OF BUKHARA .....	60
Narimonov Murodillo Ismat og‘li, Utayeva F.X. SOMONIYLAR DAVLATIDA ILM-FAN, MADANIY HAYOT VA DIN .....	71
Ozodova O‘g‘iloy Davron qizi, S.A.Toshtemirova. QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHRIDA SHAHARSOZLIKNING RIVOJLANISHI .....	73
Xo‘jageldiyev Ibodulla Mamaradjab o‘g‘li. BUXORO ME’MORCHILIGI .....	74
Shodiyeva Shahlo Soliyevna. AMIR TEMURNING OILASI VA OILAVIY HAYOTI: HOKIMIYATINING GENEALOGIK LEGITIMLASHUVI .....	78